

“AGROBUXGALTERIYA” DASTURIY MAHSULOTINING QO’LLANILISHI VA UNING SAMARADORLIGI

Qalandarova Gulbahor Matyakubovna

*SDVMChVB Universiteti Toshkent filiali Buxgalteriya
hisobi va audit kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Rustamova Irodaxon

*SDVMChVB Universiteti Toshkent filiali Buxgalteriya
hisobi va audit yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Kirish

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri sanaladi. Ushbu sohada samarali boshqaruv va aniq hisob yuritish tizimi korxonaning moliyaviy holatini to‘g‘ri aks ettirishda va ishonchli qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Raqamlı transformatsiya jarayonlari qishloq xo‘jaligida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, “Agrobuxgalteriya” dasturiy mahsuloti kabi innovatsion yechimlar buxgalteriya hisobining sifatini oshirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish va ish jarayonini avtomatlashtirish imkonini bermoqda.

Asosiy qism

“Agrobuxgalteriya” dasturi — bu qishloq xo‘jaligi korxonalarining buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy tahlillarni o‘tkazish, hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va hisobotlarni shakllantirishda mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan axborot tizimidir. Dastur fermer xo‘jaliklari, shirkatlar, agroklasterlar va boshqa qishloq xo‘jaligi subyektlari uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Ushbu dastur yordamida quyidagi amaliy imkoniyatlari yaratiladi:

- Ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlik bilan hisobga olish (urug‘, o‘g‘it, yoqilg‘i, mehnat haqi va boshqalar);
- Hisobotlarning avtomatik shakllanishi (soliq hisobotlari, moliyaviy balans va boshqalar);
- Omborxona hisobi va mahsulot harakatini monitoring qilish;
- Mehnatga haq to‘lash hisobining yuritilishi;
- Soliq va statistika organlari bilan integratsiyalashgan tizim.

Dastur foydalanuvchi uchun qulay interfeysga ega bo‘lib, hatto kompyuter savodxonligi yuqori bo‘lmagan fermerlar ham undan bemalol foydalanishlari mumkin. Amaliyatda ushbu dastur yordamida qishloq xo‘jaligi tashkilotlarida ish unumдорлиги ошгани, xatoliklar kamaygani, hisobotlar tayyorlashga ketadigan vaqt qisqargani kuzatilgan.

Misol tariqasida, Farg‘ona viloyatidagi ayrim fermer xo‘jaliklari ushbu dastur yordamida yillik hisob-kitob ishlarini 20–25% tezroq yakunlay olishgan. Bundan

tashqari, kredit olish jarayonida moliyaviy holat bo'yicha aniq va tizimli hisobot taqdim etish imkoniyati sababli, banklar bilan ishlash osonlashgan.

Shuningdek, "Agrobuxgalteriya" dasturining yana bir muhim jihatni — u orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli nazorat o'rnatiladi. Bu esa korxona ichidagi resurslardan samarali foydalanishni, xarajatlarni kamaytirishni ta'minlaydi. Dasturda mavjud analitik vositalar yordamida foydalanuvchi daromad va xarajatlar strukturasi, mahsulot tannarxi va rentabellik ko'rsatkichlari haqida to'liq tahliliy ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Xulosa

"Agrobuxgalteriya" dasturiy mahsuloti bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida buxgalteriya hisobini yuritishda muhim vositaga aylanmoqda. Uning yordamida inson omilidan kelib chiqadigan xatolar kamaymoqda, hisobotlar tizimli shaklda yuritilmoqda, samaradorlik esa ortmoqda. Dasturdan keng foydalanish nafaqat korxonalar darajasida, balki butun agrar sohani raqamlashtirish va boshqaruv sifatini oshirishda muhim o'rinni tutadi.

Foydalanimanligi adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonuni. (2023-yilgi tahriri)
2. www.agrobuxgalteriya.uz — Rasmiy veb-sayt materiallari
3. Qishloq xo'jaligi buxgalteriyasi: o'quv qo'llanma / T. Xudoyberdiyev, A. Rasulov — Toshkent, 2022
4. "Raqamli texnologiyalar va agrosohada ularning qo'llanilishi", Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023
5. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi statistik axborotnomalari (2024)